



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI





XORAZM VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI*

* Viloyat hajmida yashirin iqtisodiyot hajmi
hisobga olingan

2024- YIL YANVAR-NOYABR

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-noyabr oylari uchun)

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida Xorazm viloyatida jami 8 792,7 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ni tashkil etdi.



Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida Xorazm viloyatida qurilish ishlari




2024- yilning yanvar-noyabr oyida hududlar kesimida, xususan, Urganch shahri (1085,9 mlrd so‘m), Urganch tumani (833,0 mlrd so‘m) va Xiva tumanida (639,3 mlrd so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida Xorazm viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 76,6 % ulushni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,0 % ulushni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 128,7 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 3,4 % ulushni va 2023- yilning mos davriga nisbatan 96,6 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 88,2 %i yoki 7 756,5 mlrd so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 834,0 mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 96,6 % ni tashkil etdi.

96,6 %

834,0
mlrd so‘m

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 2 624,0 mlrd so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 80,3 % ni tashkil etdi.

80,3 %


2 624,0
mlrd so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 4 298,5 mlrd so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 92,2 % ni tashkil etdi.

92,2 %

4 298,5
mlrd so‘m

Yillar kesimida yangi qurilish ishlarining hajmi va ulushi



2024- yilning yanvar-noyabr oylarida umumiy hajmda yangi qurilish ishlarining ulushi


2024- yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm Urganch shahri (985,3 mlrd so'm), Urganch tumani (726,4 mlrd so'm) va Xiva tumanida (577,6 mlrd so'm) qayd etildi.



2024- yilning yanvar-noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bajarilgan qurilish ishlari hajmi – **8 792,7 mlrd so'm**



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "**Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**" ko'rsatkichi qo'llaniladi.


Jami qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 9,8 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,0 % punktga ko'payidi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi va 37,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,0 % punktga kamayib, 53,0 % ni tashkil etdi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-noyabr oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 863,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 152,3 % oshgan va ularning umumiy hajmdagi ulushi 3,0 % ga ko'payib, 9,8 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd soʻmda



Jamiga nisbatan ulushi



Urganch shahri.



Xiva tumani




Xonqa tumani

Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Urganch shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 41,4 %i), Xiva tumanida (15,5 %) va Xonqa tumanida (14,3 %) qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi



2024- yilning yanvar-noyabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 37,2 %i to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 105,4 % ni tashkil etgani holda 3 270,6 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

oldingi yilning mos
davriga nisbatan

120,8 %

oldingi yilning mos
davriga nisbatan

109,1 %

1 381,3
mlrd so'm

1 862,3
mlrd so'm

2 174,8
mlrd so'm

2 608,4
mlrd so'm

3 270,6
mlrd so'm

2020

2021

2022

2023

2024

82,7 %

oldingi yilning mos
davriga nisbatan

102,6 %


oldingi yilning mos
davriga nisbatan

105,4 %


oldingi yilning mos
davriga nisbatan

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

Hududlarning hajmi, mlrd so‘m




Jamiga nisbatan ulushi



Ma‘lumot uchun: ko‘rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Urganch shahri (542,7 mlrd so‘m), Urganch tumani (465,7 mlrd so‘m) va Xiva tumaniga (406,0 mlrd so‘m) to‘g‘ri keldi.

Norasmiy sektor tomonidan 2024- yilning yanvar- noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 53,0 % ni yoki 4 658,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni tashkil etdi. Shundan 3 345,0 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,1 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 950,3 mlrd so'mni va 84,0 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 363,3 mlrd so'mni va 121,9 % ni tashkil etdi.

Oldingi yilning mos davriga nisbatan
121,2 %

Oldingi yilning mos davriga nisbatan
107,8 %

938,0
mlrd so'm

1 305,4
mlrd so'm

1 666,6
mlrd so'm

4 248,9
mlrd so'm

4 658,7
mlrd so'm

2020

2021

2022

2023

2024

118,1 %

oldingi yilning mos davriga nisbatan

114,0 %


oldingi yilning mos davriga nisbatan

102,5 %

oldingi yilning mos davriga nisbatan

Norasmiy sektor tomonidan 2024- yilning yanvar- noyabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd so'mda



321,3 mlrd so'm
Urganch tumani



234,4 mlrd so'm
Hazorasp tumani




218,0 mlrd so'm
Xonqa tumani

Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Urganch tumanida (321,3 mlrd so'm), Hazorasp tumanida (234,4 mlrd so'm) va Xonqa tumanida (218,0 mlrd so'm) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

yanvar- noyabr oylarida hajm, mlrd so'mda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 298,3 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 8 494,4 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,4 % va 96,6 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Urganch shahrida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 11,6 %i), Urganch tumanida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 9,4 %i) va Xiva tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 7,4 %i) qayd etildi.

Qurilish ishlari

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi
Tel. 62 224-65-22 (9020)